TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 6-avgust | 317-10-139-Q/24 | Qibray tuman hokimligi

2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 85 va 90^2-moddalariga hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 19-iyuldagi “2025-2027-moliya yillari uchun viloyat mahalliy budjeti loyihasini tuzish to‘g‘risida”gi 525-10-0-Q/24-sonli qaroriga, shuningdek “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish, ko‘rib chiqish hamda belgilangan muddatlarda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 19-iyuldagi “2025-2027 moliya yillari uchun viloyat mahalliy budjeti loyihasini tuzish to‘g‘risida”gi 525-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish, ko‘rib chiqish va viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi taqdim etish bo‘yicha ishchi guruh (bundan buyon – ishchi guruh) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh zimmasiga 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish ishlarini tashkil qilish hamda

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi o‘z vaqtida topshirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet mablag‘larini taqsimlovchilar hamda budjet tashkilotlari 2025-2027-yillar uchun budjet so‘rovlarini aniq va asoslangan hisob kitoblar bilan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga joriy yilning 20-iyuliga qadar taqdim etilishini ta’minlasin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Erbachchayev) joriy yilning 25-iyulidan kechikmasdan 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallari loyihasini umumlashtirilgan holda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosi nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Botirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.A.Rashidov**

Qibray tuman hokimining
2024-yil 6-avgustdagi
317-10-139-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet so‘rovi va 2025-2027-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish, ko‘rib chiqish hamda Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish bo‘yicha ishchi guruhi

TARKIBI

O.Erbachchayev	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (ishchi guruh rahbari)
Ya.Artikbayev	Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari)
F.Yuldasheva	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri (ishchi guruh a’zosi)
Z.Abdullayev	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (ishchi guruh a’zosi)
R.Komilov	Madaniyat bo‘limi boshlig‘i (ishchi guruh a’zosi)
F.Babakalanov	Sport maktabi direktori (ishchi guruh a’zosi)